



**ADVOKATNING IQTISODIY SUDLARDA APELLATSIYA,
KASSATSIYA VA TAFTISH INSTANSIYALARIDAGI VAKILLIK
FAOLIYATI**

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: malikatolibbayeva@gmail.com

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, odil sudlovni ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlarning rivojlanishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining kengayishi va iqtisodiy aloqalarning murakkablashuvi iqtisodiy nizolar sonining ortishiga olib kelmoqda. Mazkur nizolarni adolatli, tezkor va qonuniy hal etishda iqtisodiy sudlar muhim institutsional rol o'ynaydi. Iqtisodiy sudlarda ko'riladigan ishlarning murakkab huquqiy va moliyaviy xususiyatga egaligi taraflardan yuqori darajadagi huquqiy bilim va protsessual tayyorgarlikni talab etadi. Aynan shu jihatdan advokatning professional vakil sifatidagi ishtiroki iqtisodiy nizolarni hal etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Advokatning sud jarayonlaridagi vakillik faoliyati nafaqat taraf manfaatlarini himoya qilish, balki sudda tortishuvlilik va taraflar tengligi prinsiplarining real ta'minlanishini ham kafolatlaydi. Sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish mexanizmlarining mavjudligi huquqni qo'llash amaliyotida xatolarni bartaraf etish va odil sudlovni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalarining faoliyati sud-huquq tizimida alohida o'rin egallaydi. Ushbu instansiyalarda ish yuritishning murakkab protsessual tartibi advokatning chuqur nazariy bilimlari va amaliy

tajribasiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Ayniqsa, yuqori sud instansiyalarida advokat vakilligi sud hujjatlarining qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish, moddiy va protsessual huquq normalarining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash hamda sud amaliyotida bir xillikni shakllantirishga xizmat qiladi. Taftish instansiyasi esa sud xatolarini favqulodda tartibda bartaraf etishga qaratilgan mexanizm sifatida advokatning yuksak bilim va takribasini talab etadi. Shu bois, advokatning iqtisodiy sudlarda, shuningdek apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalarida vakillik faoliyatini nazariy-huquqiy va amaliy jihatdan kompleks o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tezis aynan ushbu masalalarni tahlil qilishga, advokat vakilligining huquqiy mohiyatini ochib berishga hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga muvofiq, ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'z manfaatlarini sudda shaxsan yoki vakil orqali himoya qilish huquqiga ega. Vakil sifatida advokat ishtirok etishi mumkin bo'lib, uning vakolatlari advokat orderi yoki ishonchnoma bilan tasdiqlanadi.

Iqtisodiy sudlarda advokat vakilligi quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- 1) da'vo arizalari va protsessual hujjatlarni tayyorlash;
- 2) dalillarni taqdim etish va baholashda ishtirok etish;
- 3) sud majlislarida taraf nomidan qatnashish (vakillikni amalga oshirish);
- 4) sud hujjatlariga nisbatan shikoyat va e'tirozlar kiritish.

IPKning IV bo'limi Iqtisodiy sudlarning sud hujjatlarini qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish nomlanib, 34-bobi apellatsiya instansiyasida ish yuritish deb ataladi. Apellyatsiya instansiyasi birinchi instansiya sudining qarorini mohiyatan qayta ko'rib chiqishga qaratilgan bo'lib, bu bosqichda advokat: sud qarorining asoslanganligini huquqiy jihatdan tahlil qiladi; dalillarni noto'g'ri baholash holatlarini ko'rsatadi; moddiy va protsessual huquq normalarining buzilganligini dalillar yordamida asoslaydi. IPKda apellatsiya shikoyatini hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida berilishini istisno qiluvchi holatlar majud bo'lib bundan holatlar qatoriga sudning soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan, shuningdek huquqiy ta'sir chorasini qo'llash, o'zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo'lgan yer uchastkasini qaytarish, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to'g'risidagi ishlar bo'lib, ular ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o'n kun ichida berilishi mumkin. Agar advokatning e'tiborsizligi bilan mazkur muddat o'tkazib yuborilsa, bu ishonch bildiruvchining faoliyatiga, ishchanlik salohiyati va moddiy ahvoliga ham jiddiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi.

IPKning 35-bobi kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish deb nomlanib, 282-moddaning mazmunidan apellatsiya shikoyatini bergan shaxslar kassatsiya shikoyatini ham berishga haqli ekanligi anglashiladi. Kassatsiya instansiyasi sud hujjatlarining qonuniyligini tekshiruvchi bosqich hisoblanadi. Ushbu instansiyada advokat: huquq normalarining noto'g'ri qo'llanilganligini ko'rsatadi; sud amaliyotida bir xillik prinsipining buzilganligini asoslaydi; sud xatolarini bartaraf etishga qaratilgan huquqiy pozitsiyani shakllantiradi. IPKning 36-bobi sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish deb nomlanib, 307-

324¹²-moddalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 25.06.2024 yilgi —Sudlar tomonidan iqtisodiy ishlarni taftish tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risidagi 21-sonli qaroriga ko'ra, yuridik shaxs vakilining xizmat safarida, mehnat ta'tilida bo'lishi, yuridik xizmat xodimining bo'lmasligi, davlat bojini to'lash uchun pul mablag'larining mavjud emasligi va hokazolar yuridik shaxs tomonidan shikoyat berish muddati o'tkazilganligining uzrli sabablari sifatida ko'rilishi mumkin. emas. Taftish instansiyasi sud hujjatlarini favqulodda tartibda qayta ko'rib chiqishga qaratilgan alohida protsessual mexanizm bo'lib, u sud qarorlarining qonuniyligi va adolatliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Taftish instansiyasida advokat vakilligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur bosqichda advokat: sud hujjatlarida qo'pol moddiy yoki protsessual huquq buzilishlarini aniqlaydi; odil sudlov prinsiplari buzilganligini asoslaydi; ish bo'yicha yakuniy va muhim huquqiy pozitsiyani shakllantiradi. Taftish instansiyasida advokat vakilligi sud amaliyotida xatolarning tuzatilishi va huquqni qo'llashda yagona yondashuvni ta'minlash nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda advokat vakilligi bilan bog'liq quyidagi muammolar mavjud: Birinchidan, yuqori instansiya sudlarida vakillik vakolatlarining tor talqin qilinishi; Ikkinchidan, taftish instansiyasiga murojaat qilish tartibining murakkabligi; Uchinchidan, advokatning protsessual imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligi.

Xulosa qilib aytganda, advokatning iqtisodiy sudlarda, apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalarida vakillik faoliyati sud-huquq tizimining muhim instituti hisoblanadi. Ushbu institut taraflarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sud hujjatlarining qonuniyligi va adolatliligini ta'minlashda muhim

ahamiyat kasb etadi. Advokat vakilligining ilmiy va amaliy jihatdan yanada rivojlantirilishi sud tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi.
<https://lex.uz/ru/docs/-3523891?otherlang=1>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 25.06.2024 yilgi —Sudlar tomonidan iqtisodiy ishlarni taftish tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risidagi 21-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-7000816>.
3. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_37800/.
4. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000375>.